

**MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK
MASLAHAT ISHLARINI TASHKIL ETISH**

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



Toshmatova Feruza

Angor tumani 29-umumta 'lim maktabi psixologi

Xujamuratova Mexriniso Ismoilovna

Angor tumani 26-umumta 'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada rivojlanayotgan jamiyatimizda amaliyotchi psixolog faoliyati, psixologik faoliyat jarayonida psixologik maslahat ishlarini tashkil etish bosqichlari, ularni tashkil etish jarayoni, amaliyotchi psixolog uchun zarur hisoblangan psixologik maslahat xonasini tayyorlash va sharoit yaratish kabilalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: amaliyotchi psixolog, psixologik maslahat, psixologik faoliyat, psixologik maslahat xonasi, ish vaqt.

Mamlakatimiz ilm-fan taraqqiyotida psixologiya sohasiga oid ilmiy tadqiqot ishlari psixologiya sohasi bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etish, psixologik diagnostika va psixologik korreksiya kabi an'anaviy amaliy ish shakllari bilan bir qatorda psixologik maslahat psixolog kasbiy mutaxassislik faoliyatida nisbatan yangi sohalardan biri hisoblanib, mustaqil faoliyat turi sifatida yaqin yillarda ajralib chiqdi. Psixologik maslahat faoliyati mutaxassisdan juda chuqur, maxsus bilim va alohida kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Ushbu tayyorgarlikni oddiy tashkil etish, yuqorida keltirib o'tilgan bilim sohalari va malakalar bilan almashtirish mumkin emas, ammo psixolog-maslahatchi uchun ushbu bilimlarning barchasi ham juda zarurdir.

Psixologik maslahat sohasiga doir bilimlar faqat amaliyotchi psixolog bo'lishni xohlovchilar uchun emas, balki ijtimoiy xizmat xodimlari, maxsus

psixologiya sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar, ya'ni defektologlar uchun ham majburiy hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda psixolog mutaxassislarni turli sohalarda faoliyat yuritishlari uchun tayyorlashda barcha oliy o'quv yurtidagi fan dasturlariga psixologik maslahat yoki psixologik xizmat asoslari kabi fanlar kiritilgan va yaqin kelajakda amaliy ishlari bilan shug'ullanuvchi psixologlar soni bo'yicha respublikamiz dunyoning rivojlangan mamlakatlariga tenglashib oladilar, deb hisoblashga barcha asoslar mavjuddir. Bu kabi mutaxassislarni oliy o'quv yurtlarida aynan psixolog-maslahatchi sifatida tayyorlash boshlandi.

Oxirgi yillarda yurtimizdagi oliy o'quv yurtlarida tayyorlangan oliy psixologik ma'lumotga ega bo'lgan amaliyotchi psixologlarning ko'pchilik qismi psixologik maslahat sohasida bilimlarini oshirish ehtiyojini his etmoqdalar, ammo bu ehtiyoj hozirgi kungacha to'laqonli yo'lga qo'yilmagan.

Buning uchun esa birinchidan, faqat endi amaliy psixolog bo'lishni istaganlar, ijtimoiy xizmat xodimlari yoki maxsus psixologlar (defektologlar) va majburiy fanlardan biri sifatida psixologik maslahatni o'rGANishi kerak bo'lgan bakalavrlar foydalanishlari mumkin. Ikkinchidan, insonga kundalik hayotida foydali bilim va malakalar tizimi sifatida shunchaki amaliy psixologiya bilan qiziquvchilar uchun mustaqil bilim olishda psixologik maslahatga oid o'quv qo'llanmalar, faoliyat jarayoniga oid ilmiy tadqiqot ishlarining amaliyotga joriy etilish natijalari bo'yicha tavsiya etilgan psixologik ishlar foydali bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari faoliyatida psixologik maslahat ishlarini tashkil qilish zaruriyati quyidagi sharoitlarda yuzaga keladi. Birinchidan, maktabda ishlovchi ko'pchilik xodimlarda psixologik xususiyatdagi turli muammolar mavjud bo'ladi. Bu muammolarni o'zları mustaqil hal eta olmaydilar. Shu o'rinda gap, o'zini bemor sifatida hisoblamaydigan va shifokorga yordam so'rab murojaat qilishni xohlamaydigan, lekin psixolog maslahatiga quloq tutadigan va uning tavsiyalariga amal qiladigan odamlar haqida bormoqda.

Ikkinchidan, alohida psixologik maslahatni yaratish ehtiyoji u yoki bu ijtimoiy birlikda (jamiyat, tashkilot) o'zining psixologik maslahati mavjud bo'lib, uning ishi samarasini oshirish zarur bo'lgan sharoitlar yuzaga keladi. Bunga odatda mutaxassislar faoliyatining ta'lif muassasasi doirasida tashkil etish va vazifalarini taqsimlash hisobiga erishiladi. Faoliyatga oid vazifalarni taqsimlash o'z navbatida ish jarayonida chuqur ixtisoslashishni ko'zda tutadi, buning hisobiga yuksak kasb mahorati va ish sifatini oshirishga erishiladi.

Amaliy psixologiyada bu psixolog-mutaxassislar orasida kamida uch faoliyat sohasi: psixodiagnostika, psixokorreksiya va psixologik maslahat bo'yicha kasbiy vazifalarining taqsimlanishini nazarda tutadi. Bu kabi faoliyat sohalarining har biri tarkibida ixtisoslashtirishni yanada chuqurlashtirish ko'rsatib o'tilgan yanada tor vazifalarning ajralishini ko'zda tutadi. Shu mazmunda emotsional, shaxsiy, oilaviy, psixologik, pedagogik va amaliy maslahat sohalarida alohida amaliyotchi psixologlar doirasida ixtisoslashish juda to'g'ri bo'ladi.

Maktab amaliyotchi psixologlar faoliyatida psixologik maslahat ishlarini tashkil etish masalalariga maxsus jihozlangan psixologik maslahat xonasini tayyorlash ham kiradi. Agarda psixologik maslahat boshqa xonalardan alohida, boshqa ishlar bilan shug'ullanadigan odamlardan uzoqda bo'lsa yaxshi va qulay bo'ladi. Biroq hozirgi sharoitlarda bunga erishish bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun boshqacha tamoyillarga amal qilish kerak bo'ladi.

1. Psixologik maslahat o'tkazish mumkin bo'lмаган joyda uni tashkil etishga iloji boricha yo'l qo'ymaslik. Masalan, psixologik maslahat ishlarini bir sharoitda olib borish va psixolog-maslahatchining mijoz bilan tinch ishlashiga halal beruvchi sharoitlar mavjud xonalar, sport zallari yaqinida yoki ichida psixologik maslahatni o'tkazish mumkin emas. Psixologik maslahatlarni maktab sharoitida oshxonalar yaqinida yoki ichida, transport yo'llari yaqinida umuman, shovqin bor joylarda o'tkazish umuman mumkin bo'lmaydi. Psixologik maslahatlar uchun shifoxonalar va xususiy klinikalar yaqinida, ularning

binolarida umuman joylashtirib bo'lmaydi, bunday holatda qo'shni bo'lish mijozning xayolida u "Men bemorman" - degan fikr paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Psixologik maslahat uchun tinch, maktab binosida mavjud shovqindan holi xonada amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Psixologik maslahat ishini tashkil qilishni yana bir umumiy masalasi – bu kadrlarni to'plash masalasidir. Psixologik maslahat ixtisosligi bo'yicha amaliy psixologiya sohasida oliv psixologik ta'limga ega mutaxassislar psixolog-maslahatchi sifatida ishlasalar juda o'rinli bo'ladi, biroq hozirgi kunda umumiy psixologik ta'lim har doim ham bunday ixtisoslikni ta'minlay olmaydi va psixolog- maslahatchi mustaqil ish boshlar ekan, bu sohada amaliyot davomida o'rganishiga to'g'ri keladi.

Psixologik maslahatda ishlovchi yordamchi xodimlar ham psixologik maslahat to'g'risida va psixolog-maslahatchi ishi to'g'risida umumiy bo'lsa ham tasavvurga ega bo'lishlari yaxshi bo'ladi.

Maktab amaliyotchi psixologi faoliyatida psixologik maslahat ish tartibi bo'yicha quyidagilarni inobatga olishni taqazo etadi: mijozning vaqt, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan psixologik maslahat ish tartibi mijozlar uchun qulay hisoblanadi. Mijozlar esa ko'pincha ularning ishlari yoki o'qishi boshlanishidan oldin yoki ish (o'qish) yakunlanishi bilan hamda ular ishlaydigan (o'qiydigan) joyda psixologik maslahat olishni xohlaydilar, ko'pchilik odamlar soat 8-9 dan to 16-17 gacha ishlashlari sababli soat 7-8 dan 17-19 gacha vaqt oralig'ida bo'lgan ish tartibi psixologik maslahat o'tkazish uchun eng qulay hisoblanadi. Shu bilan birga ertalab to'la psixologik maslahatni o'tkazish uchun nisbatan kam vaqt bo'ladi, shuning uchun ertalablari 1-2 soat yetarli bo'lgan maslahatning kichik bir tsiklini rejalashtirish lozim.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, maktab amaliyotchi psixologlari faoliyatida psixologik maslahat kun tartibidan o'quvchilar uchun o'tkaziladiganini, xodimlar uchun mo'ljallangan ishlardan farqlash (birinchisini

shartli ravishda yosh jihatidan keyingisidan farqli) lozim. Psixologik maslahatning muvaffaqiyati amaliyotchi psixolog mutaxassisning shaxsiy imkoniyatlari hamda mehnat sharoitiga, shuningdek yordamchi shaxslarga bog'liq. Psixolog-maslahatchi maslahat o'tkazish, ya'ni mijoz bilan to'g'ridan to'g'ri ishlashidan tashqari, faoliyatining boshqa turlari bilan ham shug'ullanadi. Bu ishlar uning psixologik - maslahat muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu ishlar, xususan, psixodiagnostika, uning natijalarini qayta ishlab chiqish hamda sharhlash, kasbiy va boshqa masalalarda hamkasblar bilan muhokama yuritish ish bilan bog'liq muammolar, mijoz bilan maslahat davrida olgan axborotlarni tahlil etish, hujjatlar ustida ishlash, psixologik maslahatni me'yoriy va samarali o'tishini ta'minlovchi barcha shu kabi ishlardan iborat. Agar yuqoridagi barcha ma'lumotlarni e'tiborga olib, psixologik maslahat o'tkazish uchun mutaxassis o'rtacha qancha vaqt sarflashi mumkinligi (mijoz bilan shaxsan ishlash nazarda tutiladi), shuningdek psixologik maslahat bilan bog'liq barcha ishlar, mijoz bilan ishlash vaqtini hamda boshqa masalalarga sarflanadigan vaqt bir-biriga to'g'ri kelishi zarur. Shunday taxminiy nisbatni psixologik maslahat ishlarini rejorashtirishda e'tiborda tutish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z.T. Psixologik maslahat: o'quv qo'llanma/Z.T.Nishanova, Sh.Asomuddinova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - 248 b.
2. Abdilkhakimovna, Mamaradjabova Bogzoda. "Psychological Mechanisms of the Influence of Self-Awareness Strategy on the Development of Children's Emotions in the Family." Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science 2 (2024): 229-232.

3. Abdilkhakimovna, Mamaradjabova Bogzoda. "Influence of self-consciousness of a person on family relationships and its psycho-correction." (2022).
4. Mamaradjabova, B. A. "Psychological interpretation of the phenomenon of happiness in the process of personal self-realization." World Bulletin of Social Sciences 23 (2023): 64-69.
5. Mamaradjabova, Bogzada, and Gulbanu Abduganiyeva. "PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE MEMORY PROCESS IN LEARNING THE ENGLISH LANGUAGE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.7 (2024): 237-239.

